

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14890489>

LITSENZIYALASH TIZIMI ISLOHOTIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH OMILINI KUCHAYTIRISH

Bahodirov Azamat Alimovich

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi

M.S Vosiqova nomidagi akademik litsey

1.15 guruh o‘quvchisi

***Annotatsiya.** Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bilan birgalikda korrupsiyaviy xatarlarni eng kam miqdorga tushirish orqali tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratishda muhim hisoblanadi. Maqolada keyingi yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning harakatlar va taraqqiyot strategiyalari doirasida o‘ta byurokratik soha hisoblangan litsenziyalash va ruxsat berish tizimi butunlay isloh qilingani ochib berilgan. Shu bilan birga, muallif ushbu sohada korrupsiyaviy xatarlar va holatlar mavjudligi, amalga oshirilayotgan islohotlarda bu ahamiyatli komponent sanalishini tahlil qilgan. Xususan, ushbu masalada “Huquq ustuvorligi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali aniqlangan faoliyatni litsenziyalash sohasidagi qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganini ko‘rsatuvchi statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan. Litsenziyalash, ruxsat berish tartib-taomillarini biznes jarayonlarni reinjiniring qilish orqali qayta ko‘rib chiqish, ortiqcha bo‘g‘inlarni olib tashlash, ayrim ruxsat beruvchi taomillardan voz kechish, elektron tizim orqali so‘rovlar o‘tkazib borish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:** litsenziya, litsenziyalash, ruxsat berish tartib-taomillari, litsenziyaning talab va shartlari, davlatning tartibga solish funksiyasi, korrupsiyaga qarshi kurashish, “Litsenziya” axborot tizimi, “Huquq ustuvorligi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi, biznes jarayonlarni reinjiniring qilish*

Kirish

Davlatning tartibga solish funksiyasi fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va jamiyatda adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, turli vositalar, instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu vositalar va instrumentlarning ichida litsenziyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Litsenziya lotincha "licentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, erkinlik, huquq, hokimiyat, ixtiyor, xohish, erkinlikni anglatadi [1]. Bu so'z ilgari Rim huquqida turli faoliyatlarni amalga oshirish uchun ruxsat berish jarayonida qo'llangan. Huquqda bu so'zning bir necha ma'nolari mavjud: 1) davlat organlari tomonidan tovarlarni chet eldan olib kirish yoki chet elga olib chiqish uchun beriladigan ruxsatnoma va shunday ruxsatnomani tasdiqlovchi hujjat; 2) patentlangan ixtiro yoki boshqa texnik yutuqdan foydalanish uchun ruxsatnoma va shunday ruxsatnomani tasdiqlovchi hujjat; 3) davlat organlaridan muayyan turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun olingan ruxsatnoma va shunday ruxsatnomani tasdiqlovchi hujjat.

Material va metodlar:

Maqolada alohida faoliyat turlarini litsenziyalash masalasi o'rganildi va tahlil qilindi. Litsenziyalashning mohiyati shundaki, u muayyan faoliyat yoki xizmatlarni qonuniy ravishda olib borish uchun davlat organlarining ruxsat berish va nazorat qilish jarayonini o'z ichiga oladi. Bu jarayon davlat tomonidan belgilangan shartlar va talablarga rioya etilishini ta'minlaydi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xulosalar asosida takliflar berildi.

Tadqiqot natijalari Jahon bankining litsenziyalash va ruxsat berish sohasi bo'yicha e'lon qilgan materialiga ko'ra, biznes litsenziyalari har qanday mamlakatning biznes muhitida asosiy komponentdir. Chunki hukumat litsenziyalari ko'pincha biznes faoliyatni tashkil qilish va uni amalga oshirish uchun talab qilinadi. Litsenziyalar va boshqa oldindan olinadigan roziliklar odatda biznes turlariga har xil shartlar va majburiyatlar yuklaydi, shu bilan birga, ayrim huquqlar ham beradi. Agar to'g'ri amalga oshirilsa, litsenziyalar regulyatorlarga bozordagi muvaffaqiyatsizliklarni hal

qilish imkonini berishi mumkin [2]. Milliy qonunchilikka ko‘ra, litsenziyalash va ruxsat berish tartib taomillari, agar jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan faoliyatning (harakatlarning) ayrim turlarini amalga oshirish fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga, jamoat xavfsizligiga ziyon va (yoki) atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lsa, joriy etiladi. “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga ko‘ra, litsenziya deyilganda jismoniy yoki yuridik shaxsga beriladigan, litsenziya talablari va shartlariga majburiy ravishda rioya etilgan taqdirda faoliyatning litsenziyalanadigan turini yoki uning kichik turini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat tushuniladi. Shuni ta’kidlash kerakki, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun litsenziya tushunchasining ta’rifi, mazmuni bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda yondashuvlar turlicha. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasida litsenziya yuridik shaxs yoki yakka tadbirkorning muayyan turdagi faoliyatni (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, litsenziyalanadigan faoliyat turiga kiruvchi) amalga oshirish huquqiga ega bo‘lish uchun maxsus ruxsat bo‘lib, litsenziyalar reyestrtdagi yozuv bilan tasdiqlanadi [3]. Armanistonda u litsenziyalanadigan muayyan turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini tasdiqlovchi rasmiy ruxsatnoma va shu huquqni tasdiqlovchi rasmiy hujjat hisoblanadi [4]. Qozog‘iston qonunchiligiga ko‘ra litsenziya birinchi toifadagi ruxsatnoma bo‘lib, litsenziya beruvchi tomonidan jismoniy yoki yuridik shaxsga, shuningdek, faoliyati moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan xorijiy yuridik shaxs filialiga, litsenziyalanadigan faoliyat turiga yoki yuqori darajada xavfli litsenziyalanadigan faoliyat kichik turini amalga oshirish uchun beriladi [5]. Moldova davlatida esa o‘rnatilgan shartlarga rioya qilgan holda belgilangan muddat davomida amal qiluvchi litsenziya ushbu hujjatda ko‘rsatilgan faoliyat turini amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi rasmiy hujjat [6] sifatida ta’riflangan. Litsenziyalash masalalari bo‘yicha huquqiy tadqiqotlarda ham mazkur yurisprudensiya uchun asosiy tushunchaning mohiyati haqida yagona fikr yo‘q [7]. Ayrim olimlar litsenziyani ma’lum faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnoma yoki huquq deb hisoblashadi, bu

huquq himoya qilish arizasini bergan shaxsga beriladi. Masalan, A.B. Bagandov litsenziyani litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik shaxsga yoki yakka tadbirkorga berilgan litsenziyalanadigan faoliyatni amalga oshirish huquqi sifatida tushunish lozimligini qayd etadi [8]. A.V. Gushin esa litsenziyani litsenziyalovchi organ tomonidan iqtisodiy subyektga berilgan, belgilangan faoliyat turini amalga oshirish yoki belgilangan harakatlarni bajarish huquqi, oldingi va keyingi nazorat bilan bog‘liq maxsus talablar va shartlarga rioya qilish [9], deb ta’kidlaydi. Umuman tadqiq qilinayotgan ushbu tushuncha davlatning ma’lum bir subyektlarga faoliyat yoki xizmat ko‘rsatish uchun huquq va ruxsat berishini anglatadi. Bu jarayon esa hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq.

Litsenziyaga tegishli faoliyatni amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi hujjat sifatida baho beradigan tadqiqotchilar ham bor. Xususan, O.S. Sobol ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziyani vakolatli organlar tomonidan unda ko‘rsatilgan faoliyat turini litsenziya talablari va shartlariga rioya qilish sharti bilan belgilangan muddat davomida yoki muddatsiz amalga oshirish uchun beriladigan ruxsatnoma xususiyatiga ega hujjat sifatida belgilashni taklif etadi [10]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 12-moddasiga [11] ko‘ra, har bir ishtirokchi davlat o‘z ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga muvofiq, xususiyy sektorda, xususan, ommaviy organlar tomonidan tijorat faoliyatini yuritish uchun taqdim etiladigan subsidiya va litsenziyalarga oid taomillar suiiste‘mol qilinishining oldini olish maqsadida korrupsiyaning oldini olish uchun samarali, mutanosib va tiyib turuvchi ta’sir ko‘rsatadigan fuqarolikhuquqiy, ma’muriy yoki jinoiy jazolarni belgilashi nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili:

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasida ma’muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlardan biri ekanligi qayd

etilgan. Ushbu xalqaro va milliy qonunchilik normalari litsenziyalash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini tashkil etish bilan birga, bu turdagi choralar talab qilinadigan munosabatlardan hisoblanadi. Litsenziyalashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: 1. Qonuniylikni ta'minlash. Litsenziyalar muayyan faoliyat yoki xizmatlarni huquqiy asosda amalga oshirish uchun zarur bo'lib, ularning standartlarga mos kelishiga kafolat beradi. 2. Jamoat xavfsizligini himoya qilish. Litsenziyalash jarayonida faoliyat xavfsiz va samarali olib borilishini ta'minlash uchun tekshiruvlar va talablar qo'yiladi. 3. Sifatni ta'minlash. Litsenziyalar xizmat yoki mahsulotlarning sifatini nazorat qilishga va saqlashga yordam beradi. 4. Iqtisodiy adolatni ta'minlash. Litsenziyalash orqali davlat bozorda monopoliya va noqonuniy raqobatning oldini oladi. Litsenziyalash jamoat manfaatlarini himoya qilish va faoliyatning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Keyingi yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar va taraqqiyot strategiyasi doirasida o'ta byurokratik soha hisoblangan litsenziyalash, ruxsat berish tizimi butunlay isloh qilindi. Ushbu sohadagi islohotlar natijasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Birinchidan, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirishga qaratilgan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustda "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Qonun bilan ma'nau eskirgan va tarqoq holdagi amaldagi qonunchilik hujjatlari unifikatsiya qilinib, sohadagi mavjud barcha qonun va qonunosti hujjatlari bekor qilindi. Xususan, ushbu sohaga oid 2 ta qonun, 2 ta Oliy Majlis qarori, 2 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 100 ga yaqin hukumat qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb topildi. Ikkinchidan, litsenziyalar va ruxsat berish hujjatlari 50 foizgacha qisqartirildi. Xususan, 160 turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi hamda tartibga solishning muqobil usuliga o'tkazildi. Natijada qonun bilan 58 ta litsenziya, 124 ta ruxsat berish hujjati hamda 39 ta xabarnomaning yakuniy ro'yxatlari tasdiqlandi.

Uchinchidan, shu kungacha mavjud bo‘l- ma gan vakolatli organi xabardor etish orqali faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq mutlaqo yangi soddalashtirilgan mexanizm joriy etildi. To‘rtinchidan, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari “Litsenziya” axborot tizimi (license.gov.uz) orqali amalga oshiriladi. Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish bo‘yicha murojaatlar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalangan holda internet tarmog‘i yoki maxsus mobil ilova orqali qabul qilinadi. Bunda boshqa vakolatli organlardan qo‘shimcha hujjatlarni olish yoki ular bilan kelishish asosiy vakolatli organ tomonidan tadbirkorlik subyekting ishtirokisiz “Litsenziya” axborot tizimi orqali mustaqil ravishda, shu jumladan, javob berishni talab etmaydigan, to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot olishga imkon beruvchi integratsiyalashgan platformaga ulanish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim orqali hozirga qadar 500 mingdan ortiq ruxsat beruvchi hujjatlar, jumladan, elektron litsenziyalar, ruxsatnomalar, xabarnomalar shakllantirildi. Mazkur islohotning asosiy maqsadi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish qatorida korrupsiyaviy xatarlarni minimum – eng kam miqdorga tushirish orqali tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish bo‘ldi, deyish mumkin. Joriy qilingan yangi tizim, xususan, yangi yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanishi korrupsiya holatlarining oldini olishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta’minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4951- sonli qarori bilan respublika hududlarida huquq ustuvorligining ta’minlanganlik holatini reyting asosida baholovchi Hududlarning huquq ustuvorligi indeksi joriy etilgan. Hududlarning huquq ustuvorligi indeksini aniqlash “Huquq ustuvorligi” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan tizimga tegishli statistik ma’lumotlar; Adliya vazirligi tomonidan “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi hamda tegishli mezonlar bo‘yicha vakolatli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda aholi hamda soha mutaxassislari

o'rtasida huquq ustuvorligi ta'minlanganlik holatiga oid ijtimoiy so'rovlar yo'li bilan amalga oshiriladi. 2023-yil yakuni bo'yicha Huquq ustuvorligi indeksi 40 dan ziyod davlat organlari va idoralari, mahalliy davlat

Hokimiyati organlari, ayrim fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan shakllantirilgan 85 mingdan ortiq statistik ma'lumotlar, 24 mingga yaqin aholi, tadbirkor hamda ekspertlar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarning natijalari asosida shakllantirildi. Hududlar jami 7 ta yo'nalishda 32 ta indikator bo'yicha 100 ballik tizimda baholandi. Ushbu indeksning 1-indikator "Hududlarda qonun hujjatlariga rioya qilinishi" bo'lib, uning 1.2.1-subindikator faoliyatni litsenziyalash sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ahvoli to'g'risidadir. 2023-yilda litsenziyalash sohasidagi qonunchilikka davlat idoralari tomonidan rioya etilmaslik holati har 100 ta murojaatlarning 1,2 foizida aniqlangan bo'lib, o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori qonun buzilishlar Xorazm (9,9 foiz), Toshkent (4,8 foiz) va Jizzax (1,7 foiz) viloyatlarida qayd etilgan. Ushbu subindikator bo'yicha 2022-yilda har 100 ta murojaatning 3,8 foizida qonun buzilishi aniqlangan bo'lib, o'rtacha ko'rsatkichdan ham ko'proq qonun buzilishlari Qashqadaryo (41 foiz), Sirdaryo (19 foiz) va Jizzax (7 foiz), Surxondaryo (5 foiz) viloyatlarida qayd etilgan. 2021-yilda esa 3,7 foizida qonun buzilishi aniqlangan bo'lib, o'rtacha ko'rsatkichdan ham ko'proq qonun buzilishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (64 foiz), Toshkent shahri (4 foiz) va Namangan viloyatida kuzatilgan. Yuqoridagilardan xulosa qilinadigan bo'lsa, 2023-yilda litsenziyalash sohasidagi qonunchilikka davlat idoralari tomonidan rioya etilmaslik holati bo'yicha o'tgan yillarga nisbatan ahvol o'rtacha uch baravarga yaxshilangan. Shu bilan birga, litsenziyalash sohasida 2023-yil davomida 11 562 ta qonun buzilishi holatlari aniqlangan. Xususan, 2000 ga yaqin respondentlar ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 18 foizi yoki 344 nafari litsenziya olish haqidagi murojaatlari ko'rib chiqilishida qoidabuzarliklar bo'lganini ma'lum qilgan. Respondentlarning 27,4 foizi (1 127 nafar) litsenziya olish jarayonida korrupsiya holatlariga duch kelganini ma'lum qilgan bo'lsa, 14,2 foiz (583 nafar)

ishtirokchi esa doimiy ravishda korrupsiyaga duch kelishini bildirgani sohada hali-hanuz korrupsiya xatari yuqori bo'lib qolayotganini ta'kidlaydi.

Xulosalar

Yuqoridagi statistik va boshqa ma'lumotlar sohada korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish, yangi yondashuvlar, mexanizmlarni qo'llashni taqozo qiladi. Respublikamizda litsenziyalash tizimi bundan 5 yil oldingiga nisbatan ancha yengilashgan, soddalashgan bo'lsa-da, bugungi kundagi ilg'or xorijiy mamlakatlarda kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib, takomillashtirilib borishi maqsadga muvofiq. Bunda litsenziyalash, ruxsat berish tartib-taomillarini biznes jarayonlarni reinjiniring qilish orqali qayta ko'rib borish, ortiqcha bo'g'inlarni olib tashlash, ayrim ruxsat beruvchi taomillardan voz kechish masalasini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. "Litsenziya" axborot tizimi operatori hisoblangan Adliya vazirligi tomonidan ushbu tizim orqali muttasil so'rovlar o'tkazib borish va natijasini boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish, litsenziya talabgorlari va litsenziatlarning fikr-mulohazalarini bilish uchun ikki tomonlama aloqani (feedback) kuchaytirish, shu asosda zarur huquqiy va amaliy choralar ko'rib borish ijobiy natijalar berishi mumkin. Har qanday davlatning litsenziyalash tizimi davlat boshqaruvida iqtisodiyotni, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda muhim vosita hisoblanadi. Keyingi yillardagi tendensiyalar bu vositaning roli oshib borayotganini ko'rsatmoqda. Litsenziyalash tizimining aniqligi, shaffofligi, korrupsiyaviy omillardan xoliligi mamlakatdagi tadbirkorlik muhitiga mutanosib ta'sir qiladi. Shundan kelib chiqib, bu tizimning o'zida korrupsiyaga qarshi islohotni kuchaytirish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib taomillarini yanada soddalashtirish, unga zamonaviy mexanizmlarni joriy etib borish zarur.